IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: AC25472870

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI

INNOVATSION RIVOJLANISH
AGENTLIGI

AGENCY FOR INNOVATIVE
DEVELOPMENT

UNDER THE MINISTRY OF
HIGHER EDUCATION, SCIENCE
AND INNOVATIONS OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

01-07/5367-son
19 dekabr 2025 yil.

Vazirlik va idoralar
(ro‘yxat bo‘yicha)

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-apreldagi 222-son qarori bilan “Yosh olimlarni yetakchi xorijiy ilmiy tashkilotlarga qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarga yuborish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom (keyingi o‘rinlarda-Nizom) tasdiqlangan.

Nizomning 3-bandiga muvofiq Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan yosh olimlarni xorijiy ilmiy tashkilotlarga qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarga yuborish maqsadida joriy yil 1-dekabr sanasida quyidagi tanlovlar e’lon qilindi:

1.AQShning Dallas shahridagi Texas universiteti (https://gov.uz/oz/innovation/contest/view/106892);
2. Malayziyaning “Sultan Idris” universiteti (https://gov.uz/oz/innovation/contest/view/106891);
3. Eron Islom Respublikasining Qishloq xo‘jaligi tadqiqotlari, ta’lim va kengaytirish tashkiloti (AREEO) (https://gov.uz/oz/innovation/contest/view/106865);
4. Jeneva xalqaro instituti (https://gov.uz/oz/innovation/contest/view/106880);
5. Rossiya Federatsiyasining “Xalqaro kvant optikasi va kvant texnologiyalari” tashkiloti (https://gov.uz/oz/innovation/contest/view/106887);
6. Tatariston Respublikasining Qozon Federal universiteti (https://gov.uz/oz/innovation/contest/view/106883);
7. Tatariston Respublikasining Innopolis universiteti (https://gov.uz/oz/innovation/contest/view/106877).

Shu munosabat bilan, oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar stajirovka o‘tashga tavsiya qilinuvchi (ehtiyoji mavjud) nomzodlar to‘g‘risidagi ma’lumot (hujjat)larni nizom talablariga muvofiq **internship.ilmiy.uz** platformasi orqali Agentlikka taqdim etishlari mumkin.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, tasarrufingizdagi oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar tomonidan nomzodlarni tavsiya etish jarayonining xolisligini va taqdim etilayotgan ma’lumot (hujjat)larning to‘liqligi, haqqoniyligi hamda nomzodlarni saralash tanlovlarda ishtirokini ta’minlashingizni so‘raymiz.

ERI
orqali imzolangan
Innovatsion rivojlanish agentligi

Sog‘liqni saqlash vazirligi

K/R: 13211-04 2025-yil 19 -dekabr

Direktor v.v.b. **A.Norov**

Iujjat haqiqiyligini mobil qurilma yordamida QR- kodni skaner qilish orqali tekshirish mumkin.

Ijr.: Feruza G‘aniyeva

Tel: +998 71 203-32-23 (ichki #655)